



O‘Z ZAMONINING BUYUK SHOIRLARIDAN BIRI SHAYXZODA

Saminov Shohjahon Sharifjon o‘g‘li

Toshkent davlat transport universiteti

“Siyosatshunoslik” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

E-mail: saminovsh2025@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada atoqli shoir, o‘zbek va ozarbayjon farzandi Maqsud Shayxzodaning adabiy faoliyati bilan birga ilmiy faoliyati ham ko‘plab ma‘lumotlar orqali yoritildi. Maqolani tayyorlashda shoirning zamondoshlari xotiralari, ilmiy va ilmiy-ommabop jurnallar sinchiklab o‘rganildi va mazkur ilmiy tadqiqot ishini tayyorlashda keng foydalanildi. Ushbu maqoladan talabalar, professor-o‘qituvchilar, keng jamoatchilik ilmiy faoliyatida foydalanishlari mumkin.

Kalit so‘zlar: adabiy janr, adabiyot, adabiy muhit, dramaturgiya, badiiy adabiyot, ilmiylik, tarjimon, noshirlik, ijod.

Аннотация. В статье посредством обширной информации освещается литературная и научная деятельность выдающегося поэта узбекского и азербайджанского происхождения Мақсуда Шайхзода. При подготовке статьи были тщательно изучены и широко использованы воспоминания современников поэта, научные и научно-популярные журналы, а также материалы, использованные при подготовке данного научно-исследовательского труда. Данная статья может быть использована студентами, преподавателями и широкой общественностью в их научной деятельности.

Ключевые слова: литературный жанр, литература, литературная среда, драматургия, художественная литература, наука, перевод, издательское дело, творчество.

Annotation. This article, along with the literary work of the outstanding poet, the son of Uzbeks and Azerbaijanis, Maqsud Shaikhzoda, was covered through a lot of information. In preparing the article, the memoirs of the poet's contemporaries, scientific and popular science journals were carefully studied and widely used in preparing this scientific research work. This article can be used by students, professors, and the general public in their scientific activities.

Key words: literary genre, literature, literary environment, dramaturgy, fiction, science, translation, publishing, creativity.

“Adabiyot xalqning yuragi, elning ma‘naviyatini ko‘rsatadi. Bugungi murakkab zamonada odamlar qalbiga yo‘l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta‘sirchan kuchidan foydalanish kerak”.

Shavkat Mirziyoyev

Maqsud Shayxzoda – yigirmanchi asr o‘zbek adabiyotining yirik vakillaridan biridir. Asli ozarbayjon xalq farzandi bo‘lgan Maqsud Shayxzoda keyinchalik xalqimizning sevimli shoiri, yozuvchisi va olimiga aylandi. O‘zbekiston qahramoni Said Ahmad aytganidek, “Shayxzoda bu dunyodan rohat ko‘rmay o‘tib ketdi. Lekin baribir baxtli inson edi. Uni el shoirimiz derdi. Shayx akam, derdi. Yoshlar uni ustozim derdi. Yosh shoirlar tuda-tuda bo‘lib unga ergashib yurardilar. U olim edi. U



Volume: 3 Issue: 1

muhtojlarga yordam qo'lini cho'zgan sahiy inson edi. U g'amda qolganlarga g'amguzor edi. U suhbatlari jonon odam edi. U nolishni bilmasdi. Taqdir zarbalariga sabot bilan turib berardi. Bir so'z bilan aytganda, u dilbar inson edi. Bir odamda shuncha fazilat bo'lishini Shayxzoda timsolida ko'rganman. U olim shoir edi. U shoir olim edi. Bunday insonlar dunyoga kamdan – kam keladi”.

Maqsud Shayxzoda 1908-yilda Ozarbayjonning Ganja viloyatiga qarashli Oqtosh shahrida tug'ilgan. Otasi san'atsevar ziyoli Ma'sumbek o'z shahrining obro'e'tiborli tibbiyot xodimlaridan biri bo'lgan. Uning xonadonida Oqtosh ziyolilarining adabiy majlislari o'tkazib turilgan. Aynan ana shu adabiy muhit hamda Nizomiyxonlik, Firdavsiyxonlik, Fuzuliyxonlik va Navoiyxonlik suhbatlari yosh Maqsud Shayxzodada adabiyotga qiziqish uyg'otgan bo'lsa, ajab emas. Manbalarda yozilishicha, “Yosh Maqsud Nizomiy va Firdavsiy, Navoiy va Fuzuliy, Pushkin va Shekspir kabi buyuklar nomini ilk daf'a ana shu gurunglarda eshitadi va bu muhit unga adabiyotga bo'lgan qiziqishini uyg'otadi”.

Maqsud Shayxzoda maktabni tugatib, 1921-yili Boku universitetiga o'qishga kiradi va shundan so'ng, Dog'istonning Darband va Boynoq shaharlarida muallimlik qiladi. U 1926-yili Adham Fayziyning “Milliy firqa” tashkilotiga a'zo bo'lgani uchun hibsga olinadi va 1928-yili Toshkentga surgun qilinadi. Shu-yu shu u mamlakatiymizda yashab qoladi va ijod olamiga shung'iydi. Taqdiri ko'p ham kulib boqmaganshoir uchun O'zbekiston uning ikkinchi Vataniga aylanadi. Maqsud Shayxzoda dastlab, Toshkentdagi Narimonov nomidagi texnikumda yoshlarga ta'lim bergan bo'lsa, keyinchalik “Sharq haqiqati”, “Qizil O'zbekiston” va “Yosh leninchi” gazetalarda faoliyat ko'rsatadi.

Ikki tilda ijod qilgan shoirning o'zbek tilidagi birinchi to'plami 1929-yilda “O'n she'r” nomi bilan bosilib chiqadi. Shundan so'ng uning “Undoshlarim”, “Uchinchi kitob” va “Jumhuriyat”, “O'n besh yillik daftari”, “Chorak asr devoni” kabi kitoblari chop etilgan. Shoir butun voqelikni qalamga oladi. O'z tili bilan aytganda, “Mehnat va qahramonlik, kurash va jang, ozodlik va do'stlik, baxt va alam, yurtning go'zal manzaralari va insonning ma'naviy jamoli uning qalamiga oshno bo'ladi”. Oybekning yozishicha, “Shayxzoda she'rlarining shakli rang-barangdir. U ruboiy (falsafiy mazmundagi to'rtlik), ballada, poema va lirik she'rlar shaklidan foydalanadi. Fikrlarining ifoda etish tarzi Mayakovskiyning tasviriy vositalariga o'xshab ketadi. U ham Mayakovskiy singari porloq va kutilmagan obrazlar yaratgan”. Shayxzoda tom ma'nodagi go'zal inson edi. Ana shu fazilat uning she'rlariga ham ko'chib o'tgan, desak ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.



Volume: 3 Issue: 1

Ozod Sharafiddinov yozganidek, “Shayxzoda shunday odamlar toifasidan ediki, u bilan bir marta hamsuhbat bo‘lgan odam uning jozibasiga maftun bo‘lib qolardi, u bilan yana ko‘rishgisi, suhbatlarini eshitgisi, loaqal asarlari orqali uning teran o‘ylariga, qaynoq hislariga sherik bo‘lgisi kelardi. Shayxzoda o‘zida ko‘p fazilatlarni mujassamlashtirgan go‘zal inson edi. Uning ma’naviy dunyosi g‘oyat boy bo‘lib, bu boylikni u sahiylik bilan odamlarga ulashishga hamisha tayyor edi”.

Ma’lumki, shoir ko‘pqirrali istedod egasi bo‘lgan. Shayxzoda she’rlar va dostonlar bilan birga, dramalar ham yaratgan. “Jaloliddin Manguberdi”, “Mirzo Ulug‘bek” va “Beruniy” shular jumlasidandir. 1944-yilda yozilgan “Jaloliddin Manguberdi” tragediyasi sahnadan olingandan so‘ng ko‘p o‘tmay shoir “o‘tmishni idealashtirgan” degan siyosiy ayb bilan qamaldi. Ma’lumotlarda keltirilishicha, “Musodara etilgan buyumlar ichida dramaning qo‘lyozmasi ham bor edi”. Asar shoir vafotidan so‘ng chop etilgan. Binobarin, shoirning 50-yillar boshida mutlaqo asossiz qamab, 25 yilga surgun qilishadi. Tuhmat bilan qamalgan Shayxzoda 1955-yili oqlanadi.

Maqsud Shayxzoda mohir tarjimon ham bo‘lgan. Shekspirning “Hamlet” va “Romeo va Julietta” asarlarini shoir o‘zbekchalashtirgan. Shuningdek, Pushkin, Lermontov va Bayron she’rlarini ham ilk bora Maqsud Shayxzoda tarjima qilgan.

Sermahsul ijodkor 1967-yili oltmish yoshga ham to‘lmay bu yorug‘ olamni tark etdi. Holbuki, boshidan qanchadan-qancha musibat o‘tishiga va kasalliklarga qaramas ikki xalq shoiri Maqsud Shayxzoda hech qachon hayotidan nolimadi. Muxtasar qilib Ozarbayjon xalq yozuvchisi Mirzo Ibrohimov ta’biri bilan aytganda, “O‘zbek adabiyotining buyuk namoyandalari – G‘ofur G‘ulom va Oybek kabi otashnafas san’atkorlar safida ijod qilgan Maqsud Shayxzoda zulolati she’riyat shu’lasi bilan qorilgan quychi edi. Uning asarlarida buyuk inqilobiy idealar, jo‘shqin vatanparvarlik tayg‘ulari, chinakam ijodiy hissiyotlar bilan yashagan yonig‘ qalbning gulduros aks sadosi mujassam topgan”.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sharafiddinov, O. *Maqsud Shayxzoda: hayoti va ijodi*. Toshkent: Adabiyot va san’at, 2005.
2. Ibrohimov, M. *O‘zbek va ozarbayjon adabiy aloqalari*. Boku: Ozarbayjon nashriyoti, 1998.
3. Qodirov, R. *XX asr o‘zbek adabiyoti*. Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
4. Dadaboyev, H., Hamidov, Z., & Xolmanova, Z. (2007). O‘zbek adabiy tili leksikasi tarixi. Toshkent: Fan, 97-103.
5. Saodat, I. Ko‘k” leksemasining etimologik tavsifi. O‘zbekiston, 75.